| Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari | 1064 |
| Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna | |
| Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish..... | 1070 |
| Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li | |
| Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati | 1075 |
| Badalov Jamshid Jamolovich | |
| Foya solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budget tizimidagi ahamiyati..... | 1080 |
| Shirinov Sabir Erkinovich | |
| O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari | 1084 |
| Anvar Eshmatov | |
| Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari | 1088 |
| Ametova Nasiba Danilovna | |
| Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish | 1092 |
| Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna | |
| Digital Transformation of Tax Systems..... | 1096 |
| Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li | |
| Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari..... | 1101 |
| Raxmonova Aziza Tolibovna | |
| Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan | 1106 |
| Umarov Elshod G'ulom o'g'li | |
| Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari..... | 1112 |
| Yuldashev Elmurod Abdujalil o'g'li | |
| Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана | 1116 |
| Икромова Ханифа Одиловна | |
| Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati..... | 1121 |
| Kamalova Jamila | |
| O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollari.... | 1125 |
| Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li | |
| Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi | 1131 |
| Ne'matov Oybek Ismatullayevich | |
| Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития | 1136 |
| Туйчиев Комилжон Лазизович | |
| Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati | 1143 |
| O'ktamova Nozima Narzulla qizi | |
| Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish | 1146 |
| Umarov Abdulquddus Abdilqatovich | |
| Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах | 1151 |
| Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович | |
| Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии..... | 1158 |
| Усманова Дилфузахон Иброхимовна | |
| The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities | 1163 |
| Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li | |



| | |
|---|------|
| Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) | 1168 |
| Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich | |
| O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari..... | 1174 |
| Qilichev Umid Ibadullayevich | |
| Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları | 1181 |
| Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi | |
| O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari | 1185 |
| Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li | |
| O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati | 1191 |
| Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li | |
| Islom iqtisodiyotining mohiyati..... | 1197 |
| Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li | |
| Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi | 1201 |
| G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li | |
| Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari | 1207 |
| Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li | |
| Перспективное развитие промышленной кооперации между странами | 1212 |
| Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы | |
| Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar | 1218 |
| Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna | |
| Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili..... | 1222 |
| Nematov Inatillo Ubaydullayevich | |
| Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish..... | 1228 |
| Umurzakova Adiba Ochilovna | |
| Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari..... | 1232 |
| Raxmanov Ilhom Xurramovich | |
| Факторы развития культурного туризма в Узбекистане | 1238 |
| Пулатова Сурайё Юлдашевна | |
| Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике | 1242 |
| Рафиева Зарина Хусановна | |
| Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries | 1246 |
| Akhmedov Doniyorbek | |
| O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari | 1250 |
| Azizova Manzura Ibragimovna | |
| The theoretical importance of product cost reduction in industrial production | 1254 |
| Dilfuza Baxramovna Safarova | |
| Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari..... | 1261 |
| Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich | |
| Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari..... | 1266 |
| Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna | |
| Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati..... | 1272 |
| Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li | |
| Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari | 1277 |
| Ibragimov Gafurjan Axmetovich | |
| Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi..... | 1282 |
| Ibragimov Mansur Axmedovich | |
| Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)..... | 1286 |
| Mamatqulov Omonulla Mamayusupov | |
| Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами..... | 1294 |
| Мансурова Севара Мансуровна | |
| Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash | 1297 |
| Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna | |



MAMLAKATGA XORIJY INVESTITSYALARNI JALB ETISHDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

To'laganova Ruhshona Farrux qizi

Toshkent moliya instituti, Budget hisobi va g'aznachilik fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Saidov Rasulbek Boltaboyevich

Toshkent moliya instituti, "Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrasи dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistondagi joriy investitsiya muhiti va jozibadorligini hududlar kesimida o'rganildi, unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi va mamlakatimizda xorijiy investorlarni jalb qila oladigan investitsiya muhitini yanada takomillashtirishga oid masalalar ko'rib chiqildi. Shuningdek, investitsion jozibadorlik va uning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatiga doir xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlari va tadqiqotlari o'rganildi, respublikaning investitsiya muhitiga oid real statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsiya jozibadorligi, investitsiya muhiti, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar.

Abstract: This article examines the current investment environment and attractiveness in Uzbekistan in terms of regions, analyzes the factors influencing it, and considers issues related to further improvement of the investment environment that can attract foreign investors in our country. Moreover, the opinions and researches of foreign and local scientists on investment attractiveness and its importance in the development of the country's economy were studied, real statistical data on the investment environment of the republic were analyzed.

Key words: investment, investment attractiveness, investment environment, fixed capital investments.

Аннотация: В данной статье рассматривается текущая инвестиционная среда и привлекательность Узбекистана в разрезе регионов, анализируются факторы, влияющие на нее, а также рассматриваются вопросы, связанные с дальнейшим улучшением инвестиционной среды, способной привлечь иностранных инвесторов в нашу страну. Также были изучены мнения и исследования зарубежных и отечественных ученых об инвестиционной привлекательности и ее значении в развитии экономики страны, проанализированы реальные статистические данные об инвестиционной среде республики.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная привлекательность, инвестиционная среда, инвестиции в основной капитал.

KIRISH

Har bir mamlakat, shubhasiz, o'z iqtisodiyotini rivojlantirish orqali dunyoning yetakchi rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishni o'ziga maqsad qiladi va shu maqsadga erishish yo'lida strategik rejalashtirishni amalga oshiradi. Jumladan, o'z yalpi ichki mahsulotini oshirish, mamlakat tashqi savdo aylanmasida eksport ulushini oshirish, aholi turmush tarzini farovonlashtirish kabi natijalarga erishishda mamlakatga xorijiy investitsiyalarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, iqtisodiyotni yangi, jahon standartlariga mos texnika-texnologiyalarni targ'ib qilgan holda modernizatsiyalash, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoniga xorij tajribasini qo'llash, respublikaning jahon miqyosidagi obro'sini ko'tarishda mamlakatga olib kiriladigan xorijiy investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Respublikaga kirib keladigan xorijiy investitsiyalar salmog'i esa mamlakatdagi investitsion muhit va uning investitsion jozibadorligiga bevosita bog'liq bo'ladi. Negaki, retsipient mamlakatning qonunlari, investitsiya siyosati, monetar va valyuta siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy holati, xorijlik investorlarga taqdim eta oladigan shart-sharoitlari mamlakatga kirib keladigan investitsiya oqimiga ta'sir o'tkazuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvaridagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonining inson qadrini yuksaltirish



va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo'nalishida amalga oshirilishi ko'zlangan "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollar, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jaib etish choralarini ko'rish" [1] haqidagi 26-maqсади respublikaning investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlarni jaib qilish mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qanchalik muhim jarayon ekanligidan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev o'zining 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy Majlisiga murojaatnomasida iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilashni 2023-yilda Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun ishlab chiqilgan ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini ta'kidladi [2]. Prezidentimiz o'z murojaatnomasida yana mamlalatimiz iqtisodiyotiga shu yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib kelgani va kelasi yillarda turli sohalar, xususan, metallurgiya kimyo, avtomobilsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi kabi iqtisodiyotning real sektoriga xorijiy investitsiyalarni jaib etish muhimligini aytib o'tganlar. Ta'kidlash joizki, ko'zlangan maqsad va aniq strategiyalar, berilgan ko'rsatmalar asosida respublikamizda 2023-yilning iyun-iyul oylarining o'zidagina respublikamizning ko'plab hududlarida qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, metallurgiya, to'qimachilik, kimyo, avtomobilsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi kabi soha va yo'nalishlarini rivojlantirish yo'lida tashkil etilgan 26 ta turli hajmdagi loyihibar investorlarga mablag'lari hisobiga amalga oshirildi (3-jadval).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda, mahalliy va jahon iqtisodchi olimlari va soha mutaxassislari o'z maqolalari, monografiyalarida investitsion jozibadorlikka turlicha yondashgan holda ta'rif berganlar. Polshaning Varmiya va Mazuri universitetining olimlari J. M. Nazarczuk, W. Lizinskalar hududlarning investitsion jozibadorligini ishlab chiqarish omillari, yangi texnologiyalarga egalik darajasi, investorlarga taqdim etiladigan imtiyozlar, hududlarning taqdim qilayotgan imkoniyatlarini hisobga olgan holda hududlarning investitsion kapitalni jaib qilish qobiliyatidan dalolat beruvchi ko'rsatkich ekanligi bilan tasniflagan [3].

Rus iqtisodchi olimlari N. Guskova, I. Krakovskaya, Yu. Slushkina, V. Makarov o'zlarining investitsion boshqaruvga bag'ishlangan asarlarida investitsion jozibadorlik rivojlanish istiqbollari, investitsiyalar rentabelligi va investitsiya xatarlari darajasi nuqtayi nazaridan alohida korxonalar, tarmoqlar, hududlar va umuman mamlakatning ajralmas xususiyati ekanligini ta'kidlaydi [4]. Darhaqiqat, investitsion jozibadorlik nafaqat makro darajadagi mamlakat investitsiya muhitini, balki mikro hududlar, alohida olingen tadbirkorlik subyektlarining ham investitsiya jaib qila olish imkoniyatini tavsiflaydi.

A. N. Asaul va I. N. Pasyada esa o'zining "Mintaqaning investitsion jozibadorligi" monografiyasida investitsion jozibadorlikni investitsion salohiyat va investitsiya risklarining yig'indisi sifatida tavsiflaydi [5].

Respublikamiz iqtisodchi olimlari B. S. Mamatov, D. Yu. Xujamkulov, O. Sh. Nurbekovlar "Investitsiyaviy jozibadorlik — mamlakat, tarmoq yoki alohida olingen biror-bir korxona investitsiyalarining daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investitsiya riski darajasi nuqtayi nazaridan baholanishi" [6], deya ta'kidlab o'tishgan. Ularning fikriga hamfikrlik bildirgan holda mamlakat investitsion jozibadorligiga nafaqat uning iqtisodiy holati, balki uning ekologik holati, geografik joylashuvi, unda yaratilgan infratuzilmalar, investorga taqdim etiladigan imkoniyat va imtiyozlar, shu bilan birga aholining hayoti farovonligi kabi boshqa ko'plab omillar ta'sir etishini qo'shimcha qilish lozim.

Yana bir o'zbek iqtisodchi olimi Sh. Mustafakulov (2017) investitsion muhit jozibadorligi sifatida quyidagi fikrni: "mamlakatning xo'jalik rivojlanish sharoitlarini tavsiflovchi va undagi investitsion faoliyning shakllanishiga ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan obyektiv ijtimoiy-iqtisodi, tabiiy-geografik va eko-logik ko'rsatkichlarning umumiy darajasi" deb talqin qilgan [7].

Bizningcha, investitsiyaviy jozibadorlik mamlakat, biror tarmoq yoki alohida olingen tadbirkorlik subyekti investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsiya xatari darajasi nuqtayi nazaridan baholanish asosida investorlarni jaib qila olish qobiliyatidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada mamlakatimizdagi joriy investitsion muhit va uning jozibadorligi, jaib qilinyotgan investitsiyalar hududlar kesimida o'rganildi, shuningdek, tadqiqot usuli sifatida grafika usulda guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir davlatning olib borayotgan investitsiya siyosatining samaradorligi unda yaratilgan investitsiya muhiti va hududning investitsion jozibadorlik ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi. Mamlakat investitsiya muhitini investitorning mamlakat hududiga kapital qo'yishiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazuvchi iqtisodi, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, moliyaviy, ekologik va boshqa shart-sharoitlar, imkoniyatlar va kamchiliklar kabi muhim omillar belgilab beradi.



Hozirgi kunda yurtimizda investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish, iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar salmog'ini oshirish mamlakatimiz investitsion siyosatining bosh maqsadi hisoblanadi. Zero, O'zbekiston o'z tabiiy resurslari, iqlimi, ko'p tarmoqli iqtisodiyoti, investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur huquqiy asoslar yaratilgani, chet ellik investorlar uchun soliq va bojdan imtiyozlar mavjudligi bilan yuqori investitsion salohiyatga egadir. Shunga qaramasdan, mamlakatimizda investitsiya muhitini takomillashtirish, uning investitsion jozibadorligini oshirish, chet ellik investorlar kapitallarini mamlakatimiz iqtisodiyotini turli sohalarini rivojlantirishga yordam beradigan loyihalarga jalb qilish borasida to'xtovsiz islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu kunga qadar qilingan sa'y-harakatlar natijasida mamlakatimizda yildan-yilga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi ko'paymoqda (1-jadval).

1-jadval: Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hududlar kesimida^[8] mlrd. so'm

| Hududlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|-------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| O'zbekiston Respublikasi | 72155.2 | 124231 | 195927 | 210195 | 239553 | 266240 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2822 | 6757.8 | 8750.6 | 7089.8 | 8110.7 | 10254 |
| Andijon | 2986 | 4711.9 | 7452.1 | 9622.6 | 11176.6 | 14339.8 |
| Buxoro | 11613.4 | 9610.9 | 10366.6 | 12183.9 | 20528.3 | 21638.3 |
| Jizzax | 1788.2 | 3606.3 | 7900.9 | 12545.4 | 9233.6 | 10373.9 |
| Qashqadaryo | 11175.3 | 16518.5 | 24462.5 | 20557.6 | 17359.1 | 16012.8 |
| Navoiy | 3977.9 | 10579.5 | 17646.3 | 15688.4 | 15020.1 | 17958.1 |
| Namangan | 3586.7 | 8158.1 | 12084.9 | 12007.2 | 12982 | 14775.1 |
| Samarqand | 4384.2 | 7061.4 | 10266.7 | 14656.4 | 15641.6 | 18917.1 |
| Surxondaryo | 3551 | 7240.6 | 11835.1 | 10068.2 | 12037.8 | 11569.4 |
| Sirdaryo | 1628 | 2699.3 | 5869.1 | 7191.9 | 8051.8 | 12354.6 |
| Toshkent viloyati | 5938.4 | 11226.9 | 20353.9 | 21148.6 | 28113.6 | 35767.7 |
| Farg'ona | 2954.5 | 5539.1 | 8685.4 | 11040 | 12625.2 | 15419.3 |
| Xorazm | 2175.9 | 3013.8 | 5032 | 5391.8 | 8292 | 8769.7 |
| Toshkent sh. | 13573.7 | 26435.7 | 42458.1 | 50371.3 | 58172.7 | 56847.9 |


Jadvalda 2017–2022-yillarda yurtimizdagи asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hududlar kesimida, milliard so'mda ko'rsatilgan qiymati keltirilgan. Ko'rinish turibdiki, 6 yil davomida mamlakatimiz jalb qilgan investitsiyalar hajmi stabil tarzda ko'payishi natijasida 2022-yilda mamlakatimizda 2017-yilga nisbatan 3,6 barobar ko'p investitsiya o'zlashtirildi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati ham 2021-yilda 102,9% ni, o'tgan yil esa 100,2% ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining joriy 2023-yilning 3 choraklik ma'lumotlariga asoslangan holda esa bu yilning 1-choragida O'zbekiston Respublikasiga asosiy kapitaliga 56557,6 mlrd. so'm, 2-choragida 139104,6 mlrd. so'm, 3-choragida 226638,6 mlrd. so'm investitsiya kiritilganini ko'rishimiz mumkin^[9].

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining mintaqaviy investitsiya loyihalari doirasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda ham Toshkent shahri respublikamizdagи investitsion jozibadorligi bo'yicha dominant hudud, Qoraqalpog'iston Respublikasi esa investitsion jozibadorligi sust hudud sifatida namoyon bo'lmoqda (2-rasm). Buni joriy yilda poytaxtga 767,8 mln AQSh dollarri, Qoraqalpog'iston Respublikasiga esa 22 mln. AQSH dollarri miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirilganida ko'rishimiz mumkin. Toshkent shahri o'zining "poytaxt" maqomi, unda tashkil etilgan infratuzilma, yaratilgan keng shart-sharoit va qulayliklar, bilan respublikaga kirib kelayotgan investitsiyalarning katta qismini jalb etayotgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxtga nisbatan deyarli 35 barobar kam miqdordagi investitsiyalarni jalb qilayotgani undagi ekologik va



infratuzilmaviy muammolar, geografik joylashuvidan noqulayliklar, aholi bir qismining qoniqarli yashash sharoiti bilan izohlanadi.



2-rasm: 2023-yilda mintaqaviy investitsiya loyihalari doirasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish hududlar kesimida (mln. AQSH dollarida) ^[10]

2023-yilning iyun-iyul oylarining o'zida qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, metallurgiya, to'qimachilik, kimyo, avtomobilsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi kabi sohalarni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan loyihalarga umumiy 863,9 mlrd. so'm qiymatga ega investitsiyalar jalb qilindi, shu bilan birqalikda aholining ishsizlik darajasini kamaytirish va hayot farovonligini oshirish maqsadida ushbu loyihalar doirasida 1579 ta yangi ish o'rinnari yaratildi (2-jadval). Bu loyihalar realizatsiyasi natijasida Toshkent viloyati aholisining 1065 nafar, Farg'ona viloyatining 288 nafar, Buxoro viloyatining 144 nafar, Samarqand viloyatining 27 nafar, Surxondaryo viloyatining 55 nafar ishga muhtoj aholisi ish bilan ta'minlandi.

2-jadval: Hududiy investitsiya dasturlari doirasida 2023-yil iyun-iyul oylarida ishga tushirilgan sanoat loyihalari hududlar kesimida ^[11]

| № | Loyiha amalga oshirilgan hudud | Loyiha qiymati (mlrd. so'm) | Yaratilgan ish o'rinnari | № | Loyiha amalga oshirilgan hudud | Loyiha qiymati (mlrd. so'm) | Yaratilgan ish o'rinnari |
|----|--------------------------------|-----------------------------|--------------------------|----|--------------------------------|-----------------------------|--------------------------|
| 1 | Buxoro | 1.7 | 4 | 14 | Toshkent vil. | 130.5 | 100 |
| 2 | Buxoro | 10 | 70 | 15 | Toshkent vil. | 25 | 510 |
| 3 | Buxoro | 68.6 | 70 | 16 | Toshkent vil. | 21.4 | 40 |
| 4 | Farg'ona | 6 | 30 | 17 | Toshkent vil. | 5.7 | 15 |
| 5 | Samarqand | 32 | 7 | 18 | Toshkent vil. | 8.8 | 15 |
| 6 | Samarqand | 16.9 | 20 | 19 | Toshkent vil. | 146.4 | 100 |
| 7 | Surxondaryo | 105.7 | 20 | 20 | Toshkent vil. | 2.3 | 10 |
| 8 | Surxondaryo | 3 | 35 | 21 | Toshkent vil. | 2 | 5 |
| 9 | Toshkent vil. | 11.9 | 15 | 22 | Toshkent vil. | 1 | 10 |
| 10 | Toshkent vil. | 8.5 | 60 | 23 | Farg'ona | 9.1 | 210 |
| 11 | Toshkent vil. | 56.3 | 25 | 24 | Farg'ona | 5 | 22 |
| 12 | Toshkent vil. | 47.5 | 60 | 25 | Farg'ona | 3 | 8 |
| 13 | Toshkent vil. | 130.5 | 100 | 26 | Farg'ona | 5.1 | 18 |

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot va o'rganishlarimiz natijasida aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi investitsion salohiyati yildan-yilga ortayotgan, yaratilgan investitsiya muhiti va infratuzilmasi, ularga taqdim etiladigan imkoniyatlar, qulayliklar, soliq va bojdan imtiyozlar bilan chet elllik investorlarni faol jalb qilayotgan davlatlar qatoriga kira oladi. Shunga qaramasdan, respublikaga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyoti



rivojida qanchalik muhim rol o'ynashini hisobga olgan holda yurtimiz investitsion jozibadorligini oshirishning yangi samarali, innovatsion yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilgan holda mamlakatimiz investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha bir qancha taklif va tavsiyalar taqdim etildi:

- Investitsiya faoliyatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamash, chet ellik investorlarning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish;
- Mamlakatimizdagi valyuta, pul-kredit siyosatini isloh qilish, fond bozorini yanada rivojlantirish;
- Respublika iqtisodiyoti, undagi tarmoqlar faoliyatiga oid ochiq ma'lumotlar salmog'i, sifati, aniqligini oshirish va uning shaffofligini ta'minlash;
- Yurtimizdagи investitsiya muhitini yaxshilashda investitsion jozibador hisoblangan xorijiy mamlakatlar tajribasini mamlakatimiz shart-sharoitlariga moslashtirilgan holda qo'llash.

Ishonamizki, yuqorida berilgan bir qator istiqbolli taklif va tavsiyalarni amaliyotga qo'llash keyingi yillarda ona yurtimizni jahonda yanada investitsion jozibador mamlakat sifatida namoyon bo'lishi va mamlakat yalpi ichki mahsulotida xorijiy investorlar investitsiyalarining salmog'i ortishi, yangi ish o'rinalarini barpo etilishi, mamlakatimiz aholisi turmush darajasi va farovonligi oshishi bilan bir qatorda ishsizlik darajasi pasayishi kabi muhim natijalarga erishishiga o'z hissasini qo'shami.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvaridagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga yo'llagan Murojaatnomasi (2022-yil 21-dekabr).
3. Jarosław Michał Nazarczuk, Wiesława Lizińska. Level of investment attractiveness and scale of foreign investments during the years 2005-2006.// Olsztyń Economic Journal, 2009, 4(1). P.13.
4. Гуськова Н.Д., Краковская И.Н., Слушкина Ю.Ю., Маколов В.И. Инвестиционный менеджмент. –М.: КноРус, 2014. 440 с.
5. Асапул А.Н., Пасяда И.Н. Инвестиционная привлекательность региона. СПб: СпбГАСУ, 2008. 120 с.
6. B.S. Mamatov, D. Yu.Xujamkulov, O.Sh. Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 607-b.
7. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. –T.: Baktria press, 2017. – 18-b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.stat.uz
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari (Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar joriy narxlarda, mlrd. so'm) – www.stat.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.miiit.uz
11. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosidagi muallif ishlansasi – www.miiit.uz

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

